O‘TKIR HOSHIMOVNING “DUNYONING ISHLARI” ASARIDA YOZUVCHI NUTQIGA XOS BIRLIKLARNING IFODALANISHI

Nasrullayeva Sabina O‘ktamjon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
Tillarni o‘qitish fakulteti
4-bosqich talabasi
sabinanasrullayeva05@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarida yozuvchi nutqiga xos birliklarning ifodalanishi tahlil qilinadi. Asarda xalqona so‘zlar, maqollar, obrazli ifodalar, hissiy ohangdagi birliklar, shuningdek, milliy ruhni aks ettiruvchi so‘z boyliklarining qo‘llanilishi o‘rganilgan. Maqola yozuvchi uslubining hayotiyligi, xalqona tabiati va o‘zbek xalqining ruhiyati bilan bog‘liqligini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: O‘tkir Hoshimov, “Dunyoning ishlari”, yozuvchi nutqi, xalqona birliklar, maqollar, obrazli ifoda.

O‘zbek adabiyoti tarixida inson qalbini, uning dard-u iztirobini, hayotga bo‘lgan qarashlarini samimiy va haqqoniy tarzda tasvirlay olgan yozuvchilar ko‘p. Ular orasida O‘tkir Hoshimov nomi alohida o‘rin tutadi. Uning asarlari xalq hayotiga juda yaqin, xalq tilida yozilgan bo‘lib, unda insoniy fazilatlar, vijdon, sabr-toqat va mehr-muhabbat asosiy mavzular sifatida gavdalanadi. O‘tkir Hoshimov 1941-yil 5-avgust kuni Toshkent shahrida tug‘ilgan. U Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetini tugatgan. Mehnat faoliyatini matbuot sohasida boshlagan, keyinchalik yozuvchilik va jamoatchilik faoliyatini davom ettirgan. Yozuvchining “Dunyoning ishlari” nomli hikoyalar to‘plami o‘zbek adabiyotida xalqona hikoyachilikning yuksak namunasi hisoblanadi. Asarlarda oddiy insonlar hayoti, ularning orzu-umidlari, dard-u shodliklari samimiy tarzda tasvirlanadi. Muallif o‘z qahramonlari orqali o‘quvchini o‘ylashga, hayotning mohiyatini anglashga undaydi.

O‘tkir Hoshimov ijodining markazida inson va uning vijdoni turadi. U har bir inson o‘z vijdoni bilan yashasa, jamiyatda adolat, tinchlik va totuvlik bo‘lishiga ishonadi. Shuning uchun ham uning asarlarida axloqiy poklik, halollik, insonparvarlik kabi g‘oyalar yetakchi o‘rin tutadi.

“Dunyoning ishlari” qissasi haqida O‘zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad shunday degandi: “Dunyoning ishlari” asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo‘shiqday o‘qiladi. Uni o‘qib turib, o‘z onalarimizni o‘ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo‘lmas qarzlarimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan

bir andisha, bir savol ko‘z oldimizga ko‘ndalang turib oladi. Qissa bizni insofga, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi”[3].

“Taniqli adib O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi kitobxonlar qalbidan chuqur joy olgan asardir. Unda asar voqealari muallif nutqi bilan emas, balki personaj nutqi, ya’ni hikoyachi qahramon tilidan hikoya qilinadi. “Dunyoning ishlari” bir qarashda avtobiografik qissaga o‘xshaydi. Unda muallif o‘z onasi to‘g‘risida, urush yillarida kechgan bolaligi to‘g‘risida so‘z yuritadi” [2, 143].

O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarida yozuvchi nutqida xalqona ohangni ko‘rishimiz mumkin. Masalan, asar ichidagi “Gilam paypoq” hikoyasidagi Hoji buvi va Poshsha obrazlari tilida:

-Voy Poshsha-a-a! Nima qilib qo‘ydinggiz, tamom bo‘psiz-ku!

-Oyog‘ingizdan ayrilibsiz-ku!

kabi gaplar orqali Hoji buvining tilidan keltirilgan xalqona gaplarni ko‘rishimiz mumkin.

-Oyi, Dalavoy keldi! - dedi akam hovliqib.

Oyim sakrab o‘rnidan turib ketdi.

-Voy sho‘rim! Ertalabdan buyon o‘ng qovog‘im uchayotgan edi-ya. Bu ko‘rgulik ham bor ekan.

Ushbu jumlada obrazlarning xalqona so‘zlashuvi keltirilgan. Yana shuningdek, yozuvchi o‘z qahramonlarini aynan xalq tili, jonli so‘zlashuv uslubi orqali ifodalaydi. Masalan asarda “ona uchun bolaning katta-kichigi bo‘lmaydi”, “haqiqat havoga o‘xshaydi”, “nafas olib turasiz-u, o‘zini ko‘rmaysiz” kabi ko‘plab chuqur ma’noli iboralar ham keltirilgan. Bu iboralar orqali yozuvchi hayot haqiqatini sodda, ammo chuqur ma’noda ifodalaydi.

Yozuvchining nutqida xalq maqollari va iboralar ham tez-tez uchrab turadi. Ular nafaqat badiiy bezak, balki xalq donoligini ifoda etuvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan:

“Oshsiz uy bor, urushsiz uy yo‘q” - yozuvchi ushbu maqol orqali har qanday uyda, oilada ham kichik-kichik muammolar bo‘lib turishi va ularga ota-ona o‘rtasidagi mehr-muhabbat va o‘zaro hurmat orqali yechim topish mumkinligini yozuvchi ko‘rsatib bera oladi.

Yana shuningdek, “Dunyoning ishlari” asarida perimiologik birliklar ham qo‘llanilgan. “Gilam paypoq” hikoyasida Hoji buvi qahramoni tilidan aytilgan “Vahima qilmang, dardini bergan Xudo shifosini ham beradi” deb aytadi. Bu so‘z ham diniy, ham ma’naviy ma’noda keltirgan. Olloh bergan sinovlarga sabr-toqat, umid qilib yengishini nazarda tutgan. Bu ibora bir tomondan Olloh sinovini eslatsa, boshqa tomondan sabr va iymonning kuchi haqida eslatadi.

Asarda ko‘p hollarda yozuvchi dialogik shaklda foydalanadi. Qahramonlarning suhbatlarini sun’iy emas, balki tabiiy, xalq og‘zaki nutqiga yaqin qilib tasvirlaydi.

-Qarz? Hali birovdan qarz ham olasizmi?

-E, senga nima, bolam! Mening ishimga aralashib nima qilasan?

Ushbu dialogik nutq “Qarz” hikoyasida keltirilgan. Ushbu hikoyada mehr-muhabbat, insoniylik kabi xislatlar ifodalangan. Dialoglar asarlarning hissiy ta’sirini kuchaytiradi.

Asarda emotsional va ekspressiv birliklar ham qo‘llanilgan. Yozuvchi nutqida his-tuyg‘ularni ifodalovchi so‘zlar keng qo‘llaniladi: bechora, sho‘rlik, iltijo, yurak ezildi, yig‘lab yubordi, yuragi orqaga qaytdi kabi so‘zlar asarga hissiy boylik bag‘ishlaydi.

Bu so‘zlar o‘quvchini befarq qoldirmaydi, ularni qahramonlar bilan birga iztiroblar va quvonchni his qilishga undaydi. “Dunyoning ishlari” qissasidagi so‘nggi hikoya “Iltijo”da yozuvchi shu darajada mahorat bilan yozganki, o‘qigan har bir kitobxonni ta’sirlantirib, ko‘ziga yosh keltiradi. Ona obrazi keltirilgan har qanday asar kitobxonni befarq qoldirmaydi. “Iltijo” hikoyasida keltirilgan muallif va uning onasining qabri boshidagi suhbati kitobxon

qalbining tub-tubigacha yetib boradi. “Oyi, men keldim... Eshityapsanmi, oyi, men yana keldim... Bugun... o‘zingizning ustingizdan boychechak o‘sib chiqibdi... Yo‘q, ha, oyijon... Yig‘layotganim yo‘q. Bilaman, men yig‘lasam, siz bezovta bo‘lasiz. Hozir... hozir o‘tib ketadi. Mana bo‘ldi…”[1, 174]. Ushbu ta’sirli jumlalar har bir kitobxonni tuyg‘ularini junbushga keltirmay qo‘ymaydi.

“Dunyoning ishlari” qissasida xalq og‘zaki ijodi namunalari ham keng ravishda qo‘llanilgan. “Oltin Baldoq” hikoyasida ham xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lgan kelin salom keltirilgan.

Karmonni katta ochgan
Ayamay pulni sochgan,
Qorinlari qopday,
Mo‘ylovlari shopday
Qaynotasiga salo-o-m!

yoki qo‘shiq janri ham keltirilgan.

“Tolda chumchuq sayraydi, ko‘rsam, ko‘nglim yayraydi...” kabi qo‘shiq janri “Ermon buvaning tilagi” hikoyasida keltirilgan.

“Dunyoning ishlari” asarida O‘tkir Hoshimov o‘zbek xalq tilining boy imkoniyatlarini to‘liq namoyon etgan. Yozuvchi nutqidagi xalqona birliklar, maqollar, dialoglar va falsafiy ohanglar asarga hayotiylik, samimiyat va chuqurlik baxsh etgan.

Shu jihatdan O‘tkir Hoshimov nafaqat adib, balki xalq ruhining tarjimoni, tilning mahoratli egasi sifatida o‘zbek adabiyotida muhim o‘rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hoshimov O‘. “Dunyoning ishlari”, “Adabiy barhayot asarlar” turkumi. –Toshkent: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2019. –176 b.
2. Karimov O. Yangi o‘zbek adabiyoti tarixi: savol-javoblar: o‘quv-uslubiy qo‘llanma/ O.Karimov. – Namangan: “Namangan”, 2016. –160 b.
3. Ahmad. S. Dunyoning ishlari haqida [elektron kitob] // http://kutubxonachi.uz/documents/asar/adabiyot/o-zbek/pdf/o-tkir-hoshimov